

XALQARO MOLIVAVIY INSTITUTLAR VA O'ZBEKISTONNING ULAR BILAN MOLIVAVIY MUNOSABATLARI

Abdulaxatov Mirkomil O'rolovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17828966>

Milliy iqtisodiyotda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar va islohotlar bilan bir qatorda, mamlakatimizning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan muvozanatli va tizimli hamkorligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, institutsional islohotlarning takomillashtirilishida muhim o'rin tutadi. Mazkur islohotlar o'zaro hamkorlikning institutsional muhitini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonda mavjud mexanizmlarni yangilash, ularning o'zaro bog'liqligini mustahkamlash va yuzaga kelayotgan bo'shliqlarni o'rganish zarur.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytiradi va ularni yangi bosqichga olib chiqadi. Ular jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Xususan, rivojlanayotgan davlatlarga amaliy va nazariy yordam ko'rsatib, ularning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri — xalqaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishdir. Moliyaviy bozorni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapital jalb qilish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish ana shu jarayonlarga xizmat qiladi. Jamiyat rivojida moliyaviy munosabatlar o'rni beqiyosdir, chunki ular moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va harakatini ta'minlaydigan murakkab tizimni tashkil etadi. Shu sababli xalqaro moliyaviy bozordagi institutlar, moliya tashkilotlari va mamlakatimiz o'rtasida keng va samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Ushbu hamkorlik natijasida bir qator xalqaro moliya tashkilotlari O'zbekistonda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga investitsiyalar yo'naltirmoqda. Ko'plab investitsiya loyihalari va hamkorlik dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu xalqaro bozorlarga chiqish, eksport salohiyatini oshirish, aholiga ijtimoiy ko'mak ko'rsatish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir.

Jahon banki guruhi rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlarga moliyaviy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Guruh tarkibidagi har bir institut o'z mablag'lari asosida mamlakatlar rivojlanish dasturlarini moliyalashtiradi. Sh.M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmonga ko'ra, O'zbekiston moliyaviy bozorini rivojlantirish, moliya tashkilotlari bilan munosabatlarni mustahkamlash va o'rta hamda uzoq muddatli taraqqiyot konsepsiyasini yaratish belgilangan.

O'zbekiston bir qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarning a'zosi bo'lib, ularning grant va kreditlari asosida ijtimoiy va investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Obod qishloq" dasturi doirasida Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun 200 million dollarlik kredit shartnomasi imzolangan.

Islom taraqqiyot banki 46-yillik yig'ilishida umumiy qiymati 1,2 trillion dollarlik loyihalar ma'qullangan bo'lib, shundan 330 million dollari O'zbekistonga yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, onkologiya xizmatlarini rivojlantirish uchun 80 million dollarlik kredit shartnomasi imzolangan. "Trustbank" esa Xalqaro Islom Savdo va Moliya Korporatsiyasi bilan 15 million dollarlik kredit liniyasi ochish bo'yicha kelishuvga erishgan.

Umuman olganda, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning istiqbollari va rivojlanish salohiyati quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisodiyotda yangi samarali ish o'rinlari yaratish;
- 2) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirish;
- 3) ichki bozorni rivojlantirish va Markaziy Osiyoda yetakchilikka erishish;
- 4) sanoatning yuqori natijalariga erishish.

Bundan tashqari, ikki tomonlama hamkorlik suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, infratuzilmaning samaradorligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirish, xususiyl sektorini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa ko'plab tashkilotlar bilan hamkorlik O'zbekistonga xalqaro investitsiyalarni jalb etish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish va biznes muhitini yaxshilash imkonini bermoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion siyosat xorijiy kompaniyalar uchun mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi, barqaror rivojlanishi va milliy moliya-kredit tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Omonov A.A., Karaliyev T.M. "Pul, kredit va banklar". O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya, 2012. – 324 b.
2. Ataniyozov J.X., Hamidova F.A., Pulatova M.B. "Xalqaro moliyaviy institutlar". O'quv qo'llanma, 2020. – 156 b.
3. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi". Darslik. T.: Iqtisodiyot va moliya, 2017. –733 b.
4. Maxmudov S. (2023). "Logistika korxonalarining aktivlari dinamikasi tahlili". Economics and Innovative Technologies, 11(1), 105–117.